

## ZAMONAVIY O‘QITUVCHINING BUGUNGI KUNDAGI KASBIY KOMPETENTLIGI.

**Asxujaev Ne’mtxo’ja Furkatxo’ja o’g’li**  
*Oriental universiteti pedagogika va psixologiya*  
*Yo’nalishi 3-bosqich talabasi*

*Telegram: @ilmunafsiy*

**Anatatsiya:** *maqolada ustozlarga, bugungi davrga moslashgan holda, o‘quvchilarning qiziqishlariga hamda jamiyatda sog‘lom fikrli, yuksak ma’naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash va ularga dars berishda alohida e’tibor beriladigan, pedagogik va psixologik yondoshuvlari haqida so‘z borgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Zamonaviy o‘qituvchi, o‘quvchi, dars jarayoni, pedagogik va psixologik yondoshuv, psixologiya, bilish jarayonlari, kichik maktab yoshi, san’at, musiqa, video, ovozlashtirish, kreativlik, pedagogik kasbiy kompetentlik.*

*- Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi.*

Sh. M. Mirziyoyev.

### **KIRISH:**

Zamonaviy o‘qituvchi deganimizda shiddat bilan bir soniyaga ham bo‘lsada rivojlanishdan to‘xtamayotgan, bugungin kun talablariga deyarli to‘liq javob beradigan, kelajak avlod uchun bor kuch g‘ayratini ishga sola oladigan va barcha yoshlarni qalbiga o‘zining ilm nuri, ziyosini socha oladigan ustoz va murabiylar ko‘z o‘ngimizda gavdalanib turadi.

Yuksak tafakkur, har tomonlama yuksak, bilimdon yoshlarni tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etuvchi shuaxs bu – ustoz hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda o‘zlarining ta’lim jarayonlarini, samarali usullar, metodikalar bilan qamrab olinishi natijasida maktablarda ijtimoiy institutlarda o‘z foydasini berayotkanligini guvohi bo‘lish qiyin emas. Maktablarda Finlandiya ta’limidan foydalanib o‘quvchilarning har tomonlama zakovatli hamda samarali bilimlarni o‘zlashtirishlari uchun qulay bo‘lgn yondoshuvlarni olib kirilishi takliflari berilmoqda. Buning negizida zamonaviy o‘qituvchini samarali mhnati turadi.

Barcha ta’lim dargohlarida hususan, maktab, bog‘cha, kasb xunar maktabi, oliy ta’lim tizimlarida o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini olib orihadi. Axborot kamunikatsiyalari rivojlangan davrda barcha ustoz va murabiylardan kutiladigan yagona narsa bu yuksak bilim, yosh o‘quvchilarga kelasi mustaqil hayotlari uchun manfaatli bilm, berishi va yoshlarni sog‘lom fikrli, teran nigohni shakillantirishga alohida etibor berilishi so‘raladi. Shu o‘rinda zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak degan savolga to‘xtalib o‘tsak bugungi zamonaviy pedagog, ustoz, o‘qituvchi o‘zida quyidagilarni shakillantira olgan bo‘lishi kerakligi ayni maqsadga muvofiq hisoblanadi:

\_\_ O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy va siyosiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma‘lumotlarni bera olishi lozim[1].

\_ Ilm-fan, texnika, texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi;

\_ O‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlashi shart;

\_ Pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi;

\_ Ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va axborot texnologiyalarining eng samarali shakli, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lishi;

\_ Ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi;

Ayniqsa, oqituvchi o‘zining individual nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur;

Zamonaviy o‘qituvchi o‘z nutqini takomillashtirib borishi uchun ta‘lim va tarbiya jarayonida quyidagi yo‘nalishlarga doimiy amalga oshirib borishi lozim:

\_ o‘zbek adabiy til qonuniyatlari va normalarini mukammal bilishi;

\_ o‘z-o‘zini va nutqiy faoliyatini muntazam nazorat qilish;

\_ o‘zining nutqiy madaniyatini doimiy rivojlantirib borish;

\_ o‘z-o‘zini nazorat va ifodali nutq malakalarini rivojlantirish uchun o‘qituvchi o‘z nutqiy faoliyatini kuzatishi lozim.

O‘qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar orasida obro‘-e‘tibor qozonishini ta‘minlaydi.

Darsda o‘qituvchi rahbarligida har bir o‘quvchining bilim olish xususiyatlari hisobga olinadi. O‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirish va ma‘naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Zamonaviy o‘qituvchi quyidagilarni o‘z vazifasi deb bilishi kerak:

\_o‘z mutaxassisligi bo‘yicha eng so‘ngi bilimlardan xabardor bo‘lishi, ta‘limni pedtexnologiyalar hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib, amaldagi o‘quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etishi;

- ta‘limda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, o‘z mahoratini, bilimini va qobiliyatini namoyish etishi;

\_ o‘quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olgan holda ular tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishga sharoit yaratish;

\_ O‘quvchilar tomonidan o‘rganilayotgan o‘quv fanlarining o‘zaro aloqadorligini ta‘minlash;

\_ shaxsni har tomonlama kamol topishini faollashtirish;

O‘qituvchi o‘z tajribasidan kelib chiqib, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagilarga qattiq e‘tibor berishi shart.

\_ integral fanlarning ilg‘or yutuqlari, kompyuter, pedtexnologiyalar va axborot texnologiya imkoniyatlaridan keng foydalanish, darsni zamonaviy o‘qu-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;

\_ darsda barcha didaktik tamoyil qoidalarning optimal nisbatlarini ta‘minlash;

\_ o‘quvchilarning qiziqishi, iqtidori va talablarini hisobga olish;

– o‘quvchining o‘zi qiziqqan, orzu qilgan kasbi bo‘yicha mahoratini shakllantirishni motivatsiyalash va faollashtirish nazarda tutilgan.

Ushbi keltirib o‘tilgan tafsiyalar zamonaviy o‘qituvchi bugungi kun talabida qanday bo‘lishi kerakligi haqida, o‘zida to‘liq tushunchalarni berib o‘tadi. O‘quvchi o‘qituvchi tomonidan darsni tushunishi va uni aqliy qobiliyatida to‘g‘ri shakllantira olishi hamda kelajakda ushbi berilgan bilimdan samarali foydalana olishi talab etiladi. Ba‘zi holatlarda o‘quvchining bilish jarayonlarida kuzatiladigan kamchiliklar sababli aqliy qobiliyat darajasi (IQ) pastroq ekanligi sababli uning darsni yetarli darajada tushuna olmasligi kuzatiladi. Buning sabablarini albatta o‘qituvchi tushunishi va hisobga olgan holda bolaga individual yondoshgan holda o‘quvchi bilan shug‘ullanishi kerak bo‘ladi. Boshqa o‘quvchilarda esa (IQ) darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar darsni tez va oson tushunib olishlari kuzatiladi. Hususan psixologik va pedagogik adabiyotlarida keltirilishicha: -bugungi davr bolalarining ham qaliy, ham jinsiy, yetlishlari kuzatilmoqda degan fikirlarni uchratamiz bu ayni haqiqat bo‘lib o‘quvchilarning darsdan zerikish holatlarini keltirib chiqaradi bu o‘rinda zamonaviy o‘qituvchi o‘zining darsga qiziqтира olish qobiliyatini ishga slogan holda dars jarayonini olib borishi kerak bo‘ladi[2]. Tarixdagi yirik pedagoglarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Rus pedagogi K.D. Ushenskiy quyidagilarni yozadi “Biz o‘qituvchilarga unday yoki bunday qiling, deb tushuncha bermaymiz. Biz ularga: siz boshqarmohchi bo‘lgan psihik hodisalarning qonuniyatlarini o‘rganing va ularga mos ravishda harakat qiling”, - deymiz[3]. Degan fikirlarini uchratamiz. Bu so‘zlar orqali o‘qituvchida ham pedagogik ham psixologik bilimlarni mavjut bo‘lishi kerakligiga ishonch hosil qilinadi. Har bir o‘quvchiga uning harakter hususiyatlari orqali yondoshgan holda dars jarayonini olib borish orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning diqatini darsga jalb qila oladi. Darsda albatta diqqatning ko‘chuvchanligini hisobga olib, zamonaviy tehnologiyararga yondoshib dars o‘tish katta samara berishi ham aniqlangan bo‘lib bunda quyidagicha yondoshuv mavjud. Doskani ilmiy fikirlar va nazariyalarga boyitib yozilgan ma‘lumotlarni o‘quvchining xotirasida mustahkamlashning yo‘li ma‘lum bir so‘zlarni, formulalarni, kerakli atamalarni yanada yaxshiroq xotirada iz qoldirishini ta‘minlash uchun yozilganlarni ashula, tez aytish usullari orqali o‘quvchilarni o‘yin faoliyati orqali ham ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin bo‘ladi.

Toshkent viloyati yangiyo‘l tumani xalq ta‘limiga qarashli 2-sonli kasb xunar maktabining 3-gurux o‘quvchilari orasida olib borilgan so‘rovnomada tatqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, bugun zamonaviy o‘qituvchi deganda ham malakaliy, va axborot texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan, o‘zining yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy bilim olgan ustozlarni ta‘lim berishligini istashini aytib o‘tishdi. Olingan nazariy bilimlarni amaliy sinab ko‘rishlari kerakligini ham takidlab o‘tishgan. Olingan nazariy bilimlarni o‘quvchilar amalda sinab ko‘rish, darslarni o‘zlari istagan honalarda o‘tish, yosh va yangi bilimlarga ega bo‘lgan ustozlarning dars berishlari istagi yuqori ekanligini takidlab o‘tishdi.

So‘rovnoma natijalaridan aniq bo‘lgan asosiy tushuncha shuki, bugun o‘qituvchida kreativlik yuqori darajada mavjud bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Amerika maktablarida maktab o‘quvchilariga kreativ fikirlash darslari o‘tilishini hisobga olsak bola ongining shakllanishida va hayoti davomida uchraydigan muamolarni yengib o‘tishida juda katta yordam berishi, qiyinchiliklardan osonlik bilan o‘tishi, stres, agresiyaga berilmaslik,

depresiyaning oldini olishiga hizmat qilinishini anglatadi. Kreativligi yuqori bo'lgan o'qituvchilar o'zlarining qobiliyatlari bilan birgalikda o'quvchilarning ham yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarini samarali hal qila olishlari va qarorlarini to'g'ri chiqara olishlarini ta'minlashadi. Maktab davridagi yosh inqirozlariga etibor beradigan bo'lsak barcha bolalarda ruhiy, ahloqiy, jinsiy hattoki o'quvchi o'zida suitsidga moyil holatlari ham mavjud o'zgarishlar yuz berishini guvohi bo'lamiz[4]. Ushbu salbiy holatlarni o'quvchilarda shakillanmasligini oldini olish uvhun zamonaviy o'qituvchi albatta bolada kreativ fikirlashni shakillantirishi kerak statistik a'lumotlarga qaraganda kreativligi mavjud bo'lgan insonda suidsid ko'rsatkichi umuman mavjud emasligini ko'rsatadi[5]. Bu fikrlar psixologlarning kuzatuvlaridan, malakalaridan kelib chiqib bildirilgan fikirlardan biri bo'ldi.

Yana bir muhim jihatni keltiriladigan bo'lsa o'qituvchida kasbiy kompetentlik mavjud bo'lishi muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Pedagogik lug'atlarda ma'lum bo'lishicha **“KOMPETENTLILIK - 1. Ma'lum holat xususida to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. 2. Pedagogning barcha imkoniyatlardan foydalana olishi, o'ziga va o'z ishiga nisbatan talabchanligi, maktab, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'ya olishi, o'z ishini ustasi bo'lgan, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilgan, o'zini-o'zi rivojlantiruvchi hamda o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la ishga sola biladigan pedagogik layoqatini bildiruvchi atama.**

K. shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo'lib, ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtiradi. K. insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma'lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki o'zi qaror qabul qilish imkonini beradi. Hoz. zamon fanida kasbiy K., ilmiy, boshqaruv, pedagogik, didaktik, metodik, ijtimoiy-psixologik K.ka oid t.lar keng qo'llaniladi. Boshqaruvga oid K. ana shu sohaga taalluqli bilim va ko'nikmalar, rahbarlik faoliyatida amaliy tajribaning mavjudligi bilan belgilanadi[6]”. Hozirgi ayni sharoyitlarda pedagoglarda kasbiy kompetentlik mavjudligi alohida e'tibor tortadigan jihatlardan biri.

Yuqoridagi fikirlardan kelib chiqib yondoshilinadigan bo'lsa kasbiy kompetentlik har tomonlama keng yoritilgan fikr bo'lib, bu ta'rifda olaarga bilim berish jarayonida ham alohida kasbiy kompetentlik ahamiyat kasb etadi. Masalan bolalarning nima uchun shovqin solayotganini, joyida jim o'tira olmasligini, darsda diqqatini chalg'ishini juda yacshi tushunadi va sabablarini ham biladi.

Pedagoglarda kasbiy kompetentlik asosan bilim, ko'nikma, malakalardan unumli foydalanish, darsda baecha ta'lim resurslaridan foydalanib darsni tshkil etishni ta'minlovchi jihatlardan hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda darsga qiziqtirish usullarini bir nechta mavjud bo'lib bunda albatta zamonaviy o'qituvchi, darsga kreativ yondoshgan holda dars jarayonini ovozashtirish orqali o'qish fanining yuqori o'zlashtirilishini ta'minlaydi bunda albatta kichik maktab o'quvchilariga o'qish kitoblaridagi hikoyalarini qahramonlarining roliga kirib o'qib berishlari ustozlari tomonidan tushuntirilsa albatta bu ham dars sifati oshadi va bolalarda o'qishga bo'lgan qiziqish yuqori darajalarga ko'tariladi bunda ham albatta o'qituvchidan kreativ yondoshuv talab etiladi. Shularni hisobga olib zamonaviy o'qituvchi o'zining kreativligi

bilan o‘quvchilarni ruhan barkamol, aqlan yetuk, hurfikirlilik, husni hulql, kelajakda raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib chiqarishiga qolaversa katta hayotga ishonch bilan qadam qo‘ya oladigan shaxslarni tarbiyalashda, yetishtirib chiqishida zamonaviy o‘qituvchining ro‘li birinchi o‘rinda turadi. Xulosa o‘rnida aytiladigan fikirlar quyidagicha a‘limda o‘qitishning yangicha, zamonaviy, rivojlangan mamlakatlarning ta‘limdagi malakalaridagi yutuqlarining joriy qilish, o‘quvchilarning taqiq orqali tarbiyalashdan ko‘ra, fikirlash doiralariga ta‘sir etgan holda yondoshish kerak bo‘ladi. Bularning barchasini o‘qituvchi o‘zining kasbiy kompetentligida mujassam etishi talab etiladi. Bugun ustozlarga qo‘yilayotgan talablar alohida yondoshuvlarni talab etadi. Chunki har bir bolaga, o‘quvchiga, talabaga alohida individual yondoshuvni talab etadi. Sababi har bir ilm oluvchi, o‘zining fikirlash jihatlarini bilan ajralib turadi. O‘qituvchi har tomondan ziyrak va kuchliy shaxs bo‘lishi kerak. Bolalarning har biriga o‘rnak bo‘lgan holda uning fikirlashiga ta‘sir etilishi orqali o‘quvchilarning ta‘lim tarbiyalarini rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. Muhiddin Toshov Pedagogika nazariyasi va tarihi darslik. toshkent-2023.
2. Psixodiyagnostika darslik. Z. Nishonova, Z. Qurbonova, S. Abdiyev, Sh. To‘laganova Toshkent-2008.
3. Ontogenez psixologiyasi. Nazariy-eksperimental taxlil E. G‘oziyev “NOSHIR” Toshkent-2010.
4. Xolnazarova Matluba Xolbutayevna. Yosh va pedagogik psixologiya-2016-yil guliston davlat universiteti o‘quv qo‘llanma.
5. pedagogika izohli lug‘ati. 2012-Xorazim viloyati
6. **KREATIV PEDAGOGIKA ASOSLARI** O‘quv qo‘llanma Toshkent-2022 p.f.d. Ernazarova Gulnora Oblaqulovna Yakubova Marhabo Yusufovna, Oblaqulov Sherari Davronovich.
7. M. Umaraliyeva Innovatsion faoliyatni takomillashtirish asosida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni. Xalq ta‘limi ilmiy metodik jurnali. Toshkent-2021. 6- nashr.
8. U. Mahkamov D. Mahkamov Yangi O‘zbekiston yoshlarini tarbiyalashda o‘qituvchi kompetensiyasi Toshkent-2021. 6- nashr